

Jizzakh State Pedagogical Institute



**Journal of Preschool
Education**

*The faculty of pre-school
education*

O'yinlar yordamida maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatish.

Jizzakh State Pedagogical University
The faculty of Preschool Education
The methodology of preschool education
Amanova Mastura, Quدراتova Diyora
Teacher Gulrux Majidova

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha talim tashkilotlarida ingliz tili mashg'ulotlarini o'yinlar yordamida mazmunli va qiziqarli tashkil qilish haqida fikr yuritilgan va chet tili darslarini samarali tashkil etishda foydalanish mumkin bo'lgan interfaol o'yinlar haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: o'yin, maktabgacha ta'lim tashkiloti, Roth, ingliz tili, bola.

Hozirgi kunda barchamizga malumki mamlakatimizda chet tillarini o'rganishga katta etibor berib kelmoqda. Shu jumladan nafaqat maktab, litsey, kollej o'quvchilari va oliy o'quv yurtlari talabalariga, baki maktabgacha talim tashkiloti tarbiyalanuvchilariga ham ingliz tilini o'rgatish yo'lga qo'yilgan. Kichik yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatish ancha mushkul va mas'uliyatli hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning diqqati juda tarqoq bolganligi sababli ular tez zerikib qolmasliklari uchun har xil o'yinlardan foydalanish zarur.

O'yin-bu malum bir kanteksda qoidalarga muvofiq o'ynaladigan raqobat faoliyati, bunda o'yinchilar maqsadga erishish va g'alaba qozonish uchun qiyinchiliklarga duch kelishadi.

Roth fikriga ko'ra, o'yin bolalarning tabbiy o'rganish usulidir. Shunday ekan bolalarning ingliz tili mashg'ulotlarining samarasini oshirish uchun turli o'yinlardan foydalanishimiz lozim. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar malumotlar manosini tushunib emas, uni texnik tarzda yod oladi. Shuning uchun maktabgacha talim tarbiyalanuvchilariga ingliz tilini o'rgatishni grammatik tushuncha berishdan boshlamaslik zarur. Aks holda bolaga til o'rgatishning dastlabki qadamidanoq bolani zo'riqtirib qo'yish va qiziqishini so'ndirib qo'yishimiz mumkun.

Bolaga ingliz tili mazmunli va qiziqarli o'tish uchun quydagi usullardan foydalanishimiz mumkun:

-turli xil qo'shiq va she'rlar orqali tushuntirish; Misol uchun, bolalarga ingliz tili alifbosini o'rgatishda shunchaki yodlashdan ko'ra qo'shiq qilib o'rgatish ancha samarali ekanligini ko'rsatish mumkun.

-aqliy va jismoniy harakatlar bilan bog'liq bolgan o'yinlar; Bunga ko'zgu o'yini, xatosini top va ko'plab o'yinlar misol qilib keltirishimiz mumkun.

-multifilmlar; Bolalar ingliz tilidagi multifilmlarni tushunmasada, multfilm qahramonlarining harakatlari orqali ular ishlatayotgan soʻzlarni tushunishga intiladi.

-rol ijro etish; oʻqituvchi bolalarga ingliz tili oʻrgatayotganda rol orqali ijro etishi yoki bolalarga ijro ettirish lozim.

-mavzuga oid muhit; oʻqituvchi mashgʻulot mavzusiga qarab oʻsha muhitni yaratib bera olsa bolalar tilini yaxshi oʻrganishadi.

-topishmoqlar; oʻqituvchi topishmoqni ingliz tili yoki oʻzbek tilida aytsada, uning javobini bolalar ingliz tilida aytishini talab qilishi lozim. Bolalar javobni topishga qiziqishadi va soʻzlarni tez oʻrganishadi.

-amaliy mashgʻulotlar; Masalan, oʻqituvchi tarbiyalanuvchilarga olmani tatib koʻrdirish paytida uning rangi, tami va hidi haqida ingliz tilida malumotlarni berib borishi lozim. Bunday usuldan foydalanish tarbiyalanuvchilarning malumotni uzoqroq muddatda xotirasida saqlab qolishga yordam beradi.

- imo-ishoralar, yuz ifodalari; Oʻqituvchi bolalarga gapirayotganda yoki buyruq berayotganda imo-ishoralardan foydalansa bolalarga tushunarli boʻladi.

- koʻrgazmali qurollar, plakatlar va kitoblar orqali; Bulardan foydalanish bolalarda oʻrganayotgan narsalar haqida tasavvurga ega bolishga yordam beradi.

- kundalik hayotda koʻp ishlatiladigan narsa buyumlarga yozish; Narsa va buyumlarga, doimo koʻzga tushib turishi va amaliyotda koʻp qoʻllanilishi bois, bola bu soʻzlarni ixtiyoriy tarzda oʻrganadi.

- yangiliklar orqali; Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar juda qiziquvchan . Shuning uchun ularga har doim bir usulda dars oʻtish emas, balki turli metodlardan foydalanib dars oʻtish lozim.

Zamon talablariga muvofiq ta'lim ham doimo oʻzgarib boradi. Ingliz tili oʻqituvchilaridan ham oʻqitish usullari va yondashuvlarni doimo ravishda oʻzgarib borish talab qilinadi. Shunday qilib, oʻqituvchilar oʻz mashgʻulotlarini tarbiyalanuvchilarga moslashtirish uchun doimiy ravishda oʻzgarishi kerak. Oʻyinlar qiziqarli va tarbiyalanuvchilarga turli yoʻllar bilan foyda keltiradi deb hisoblasada, oʻyinlar bolalar uchun eng mos mashgʻulotlarga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1 Sh.M. Mirziyoyev. Insonparvarlik.ezgulik.va buyodkorlik milliy gʻoyamizning poydevoridir . 2021yil.

2. Sh.M. Mirziyoyev. BMTassambleyasi 75-sessiyasida soʻzlagan nutqini oʻrganish va keng jamoatchilik oʻrtasida targʻib qilish. 2018yil.

Maktabgacha ta'lim jurnali: <https://presedu.jspi.uz/index.php/presedu/index>

3. Hakimov J.O. "Ta'limda axborot texnologiyalari"2016yil.
4. Daminov .O.O. Kasbiy pedagogika 2018yil.